# BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY SHAXSIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

**Xabilova Sitora Tursunmurod qizi**
Termiz davlat Pedagogika Instituti o‘qituvchisi

**ANNOTATSIYA**

Insoniyat azal-azaldan o‘zini qurshab turgan olam haqida qurol ko‘p narsalarni ta’limga intilib kelgan. Bu esa yillar o‘tib ketishi bilan yangidan-yangi, murakkab ixtiro va kashfiyotlarning yaratilishiga olib kelmoqda. Bugungi insoniyat tomonidan yaratilgan barcha ixtirolar hujjat olamdagi narsa va xodisalarni ta’limga qarama-qarshi bo‘lib, kam ta’limgacha qarama-qarshilik ko‘rsatuvchi tomonlar bo‘lgan ehtiyojlari, va bu jarayon – ta’lim jarayonining nimani to‘la anglab olish juda qiyin masaladir.

**Kalit so‘z:** ta’lim, pedagog, sifat, mohorat, kasb, malaka, zamonaviy tarbiyachi, kompetensiya, malaka, jarayon, kashfiyot, xodisa.

Talim jarayoni – bu to‘laligicha ratisonal, faqat aqlga bo‘ysunuvchi, quruq jarayon emas, chunki u tirik kishilar amalga oshirish, shu sabab ta’lim emotsional ularni – har qanday niyat, istaklarni o‘z ichiga oladi.

Ta’limning bunday murakkab obyekti ham insondan uning barcha qobiliyatlari: uning irodasi, erki, tashabbusi, his-tuyg‘ulari va ongini ta’limga tayorlashni talab qiladi. Ta’lim jarayonida biluvchi shaxsi, uning madaniy va shaxsiy darajasi, tabiiy qobiliyatlari, uni qurshab turgan muhit katta rol o‘ynaydi. Buning uchun yangi tezkor axborotlarni o‘zlashtirish, tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish va ularni amaliyotda qo‘llay olish juda muxim.

Dunyoda bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning imkoniyatlarini aniqlashtirish, tarbiyalanuvchilarning kognitiv-amaliy faoliyat tajribasini shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish, ta’limga qobiliyatning to‘rt bosqichli (qisman-vaziyatli, vaziyatli, indiviual, mustaqil) modeli asosida bolalarning kognitiv kompetentsiyasini rivojlantirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda bo‘lajak tarbiyachilarning kasbiy shaxsiy sifatlarini rivojlantirishni ta’minlash, ularda Vatanga muhabbat tuyg‘usini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, atrof-muhitga ehtiyotkor munosabatni shakllantirish, bola shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta’minlash, jamiyatga moslashishi va boshlang‘ich ta’limga tayyorligini ta’minlash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etishga katta e’tibor

qaratilmoqda. Ayniqsa, o‘zini o‘rab turgan borliqni ongli idrok qilish, egallangan bilim, ko‘nikma va malaka, amaliy faoliyat tajribasini kundalik hayotiy vaziyatlar va o‘quv jarayonida foydalanish layoqatini o‘zida ifoda etuvchi ta’lim kompetentsiyasini shakllantirish maqsad sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, bo‘lajak tarbiyachilarning kognitiv qobilyatlarini rivojlantirish metodikasini shakllantirish samarali hamkorlikdagi faoliyatni tashkil etish orqali bolalarda ta’limga qobiliyatni shakllantirishning metodik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi. Ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan tub islohotlar yurtimizda ta’lim-tarbiyatizimini tubdan takomillashtirish, ertangi kunimizning munosib davomchilarinikamolga yetkazishning mustahkam tashkiliy-huquqiy mexanizmi yaratildi. Sohaga oid qabul qilingan qator davlat dasturlariga binoan ko‘plab ta’lim muassasalariyangidan qurildi, eng zamonaviy o‘quv anjomlari bilan ta’minlandi. Bu boradagiishlar bugungi kunda yanada jadal tus olmoqda. Dunyo taraqqiyoti shiddati barcha soha kabi ta’lim jarayoniga ham yangicha yondashuvni, innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilishni taqozo etmoqda. Tarbiyachilarni malakali mutaxassis etib tayyorlash bugun davlatimizda ustuvor vazifasi sifatida qaralmoqda.

Tarbiyachi o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun maxsus tayyorgarlik ko‘rishi kerak. U quyidagi shartlarga amal qilishi kerak:

1. Pedagog yosh avlodni tarbiyalash uchun yuqori ma’lumotli, kerakli bilimlarni egallab, kerakli adabiyotlarni tanlay oladigan, ilmiy adabiyotlar bilan ishlay oladigan, ilg‘or tajribali pedagoglarning tajribasini o‘rganib, o‘z ishiga tatbiq eta oladigan bo‘lishi;

2. Pedagog bolalarni kuzata oladigan, ularning xulqi, xattiharakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ijobiy ta’sir etuvchi vositalarni topa olishi;

3. Yosh avlodni kerakli bilim, malaka, ko‘nikmalardan xabardor qilish uchun pedagogning nutqi ravon, aniq, mantiqiy, ixcham bo‘lishi lozim. Ta’lim berishda texnikaviy vositalardan samarali foydalana olishi kerak. Bolalar bilim, malaka, ko‘nikmalarni yaxshi o‘zlashtirib olishlari uchun ularni faollashtirib savollardan foydalanishi;

4. Tarbiyachi o‘ziga yuklangan vazifani bajarish uchun bolalarda o‘sha faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg‘ota olish, ularning diqqatini jalb qilib, faolligini o‘stirish, bolalarning xulqini, xatti-harakatini haqqoniy baholay olishi;

5. Har bir faoliyat uchun kerakli materiallarni oldindan tayyorlab qo‘yishi;

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. X Nuritdinova "MAKTABGACHA TAYYORLOV YOSHDAGI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI" Евразийский журнал академических исследований 2022/3/17 https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/1492

2. X Nuritdinova "SHAXSNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY VAZIFALARI" Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar 2022/12/15 https://zenodo.org/record/7445514

3. Nuritdinova X. N. KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING MUTAXASSISNI KASBIY SHAKLLANISHIDAGI O'RNI //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 158-160.

4. X Nuritdinova. "MULOQOT MUAMMOLARIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNING MAZMUN TAVSIFI" «zamonaviy Dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar: Nazariya Va Amaliyot» Nomli Ilmiy, Masofaviy, Onlayn Konferensiya, 1(28), 135–137. https://doi.org/10.5281/zenodo.7445534

5. Development of creativity of students of higher educational institutionspedagogical justification M Kuvvatova, F Kholmuminova International Conference On Higher Education Teaching 1 (3), 110-11

6. TO DEVELOP THE CREATIVITY OF STUDENTS OF HIGHER EDUCATION IMPORTANCE QM Hikmatullayevna TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 2 (12), 262-264

7. REQUIREMENTS FOR THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE ABILITIES BASED ON A COMPETENCE-BASED APPROACH M Quvvatova, R Abdusalomova Наука и инновация 1 (9), 137-139

8. M Umarova, A Ro'ziyeva "MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASVIRIY FAOLIYATNINGAHAMIYATI" Наука и инновация, 2023 1(6), 33– 35 https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/14283

9. MI qizi Umarova "RIVOJLANTIRUVCHI O 'YIN TEXNOLOGIYASI VA UNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY VA RUHIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI" Educational Research in Universal Sciences, 1172-1176 2023.6.16 http://erus.uz/index.php/er/article/view/3037

10.Yangiboyevna, Gafforova Hurriyat. "Content and Conditions of Pedagogical Work on the Development of Speech for Children from Birth to Five Years." EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY 2.1 (2022): 81-83.

11.Yangiboyevna, G. H. (2022). Content and Conditions of Pedagogical Work on the Development of Speech for Children from Birth to Five Years. EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND

12.O Yangiboyevna G. H. Content and Conditions of Pedagogical Work on the Development of Speech for Children from Birth to Five Years //EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY. – 2022. – T. 2. – №. 1. – C. 81-83. PEN SOCIETY, 2(1), 81-83.
13.Buriboyevna A. M. Conditions For Planning The Educational Process In A Preschool Institution With Compensatory Groups //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 70-77.